



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

---

2023 yil 25 aprel

№ 1783

### O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

**Madraximov Tojiddin Nasimjonovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Namangan tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Andijon viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Xo‘jaobod tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Abdukadirova Sadoqatxon Abdukarimovna** – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Xo‘jaobod tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Andijon viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Xo‘jaobod tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Rasulov Zafarjon Nosirjonovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Namangan viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Uchqo‘rg‘on tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Sardoba tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Yusupov Jasur Davronovich** – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Samarqand viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Xamrokulov Islom Kayumovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Samarqand viloyati Samarqand shahar iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Sulaymanov Axror Ibragimovich** – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha Uchtepa tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Xasanov Dilshod Rozbayevich** – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha Uchtepa tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Normatov Inomjon Ismonaliyevich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Quva tuman sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin;

**Zaripov Rustam Raxmatjonovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga, shundan besh yil muddatga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Quvasoy shahar sudining raisi lavozimiga tayinlansin;

**Xo‘jamberdiyev Jamshid Abduxamidovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Oltiariq tuman sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin;

**Minojiddinov Abdurasul Baxodirovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga, shundan besh yil muddatga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Buvayda tuman sudining raisi lavozimiga tayinlansin.

Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**X.Yodgorov**